

BOLALARDA TUG'MA GIDRONEFROZNI XIRURGIK DAVOLASH NATIJALARINI ERTA DAVRDA BAHOLASH

Sapayev O.K., Ro'zmatov I.B., Sapayev Q.O.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Urganch shahri

Tug'ma gidronefroz - bolalarda uchraydigan keng tarqalgan buyrakning tug'ma rivojlanish nuqsonlaridan biri bo'lib, buyrakning jomi va kosachalarida suyuqlik to'planishi bilan tavsiflanadi. Erta tashxis qo'yish va samarali xirurgik davolash bolaning buyrak funksiyalarini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Maqsad. Bolalarda tug'ma gidronefrozni xirurgik davolashning erta natijalarini baholash orqali davolash samaradorligini va rivojlanishi mumkin bo'lgan asoratlarni barvaqt aniqlash.

Material va usullar. Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali klinikasi bolalar xirurgiyasi bo'limida 2020-2024 yillarda tugma gidronefroz tashxisi qo'yilgan 186 nafar bemor bolalarda xirurgik davo muolajalari o'tkazildi. Clavien-Dindo tasnifi bo'yicha davolash samaradorligini baholandi.

Bemorlarda umumiy klinik tekshiruvlardan tashqari ultratovush tekshiruvi, kontrastli MSKT, ekskretor urografiya, sistografiya va nefrotsintigrafiya tekshiruv usullari o'tkazildi.

Natija va tahlillar. Davolashni yaqin davrdagi natijalarini Clavien-Dindo tasnifi bo'yicha baholaganimizda: 1-darajali asoratlar 14 (7,5%) nafar, 2-darajali 8 (4,4%) nafar, 3A-darajasi 2 (1%) nafar 3B-darajasida 1 (0,5%) nafar bemor bolalarda kuzatildi. Qolgan 161 (86,6%) nafar bemorlarda asoratlar kuzatilmadi. Ushbu asoratlar surunkali piyelonefritning qo'zish davrida, erta yoshdagi bolalarda, gidronefrozning og'ir turida operatsiyadan keyingi 1-3 kunlarida asoratlar kuzatildi.

Xulosa. Clavien-Dindo tasnifi bo'yicha jarrohlik aralashuvidan keyingi davrda o'tkazilgan amaliyotning samaradorligini erta baholashda va jarrohlik turini to'g'ri tanlashda qulay tasnif hisoblanadi. Bu tasnif nafaqat bemorlar holatini tizimli baholashga, balki muolajaviy yondashuvlarni ham to'g'ri tanlashga yordam beradi.

YOSHLARNING OILA QURISHIDAGI GENDER MASALASI SHARQ MUTAFAKKIRLARI NAZARIDA

Abatbaeva Hurziya Ilichevna

Qoroqolpoq davlat universiteti psixologiya yonalishi 1-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarning oila qurishga tayyorgarligi gender rollari, axloqiy yetuklik va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Sharq mutafakkirlari hamda zamonaviy olimlar qarashlari asosida oilaviy barqarorlikning ma'naviy-psixologik omillari yoritiladi.

Kalit so'zlar: oila barqarorligi, gender rollari, yoshlar, axloqiy yetuklik, oilaviy tarbiya, Sharq mutafakkirlari, ijtimoiy mas'uliyat

Yoshlarning oila qurishga tayyorgarligini o'rganish zamonaviy sotsiologik, psixologik va pedagogik tadqiqotlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Oila mustahkamligi va yoshlarning tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik inson salomatligi, ma'naviy tarbiya va jamiyat barqarorligi bilan uzviy bog'liq.

A. N. Sizanovning [5] tadqiqotlariga ko'ra, yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligi ularning motivatsion, psixologik, pedagogik va ijtimoiy-axloqiy yetukligi bilan belgilanadi. U ta'kidlaganidek, ijtimoiy-axloqiy tayyorgarlik fuqarolik yetukligi, nikoh yoshiga yetish, oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lish, kasbiy shakllanish, iqtisodiy mustaqillik va oiladagi mas'uliyatni anglash kabi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

N. A. Salavatovanning [4] tadqiqotida Dag'iston Respublikasidagi yoshlarning nikoh-oila munosabatlariga tayyorgarligi pedagogik sharoitlar bilan bog'liq holda o'rganilgan. Tog'li hududlarda milliy urf-odatlar, sadoqat, hurmat va axloqiy qadriyatlar kuchli bo'lishiga qaramay, bugungi kunda oila instituti chuqur inqirozga yuz tutmoqda. Jamiyatning o'tish davri, yoshlarning ma'naviy yo'nalishsizligi, hayotiy pozitsiyani mustaqil belgilay olmasligi, oilaviy mas'uliyat hissining yetarlicha shakllanmaganligi oilaviy barqarorlikni zaiflashtirmoqda.

Sharq mutafakkirlarining qarashlari

Abu Rayhon Beruniy insonning tashqi ko'rinishi va axloqiy pokligi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlagan. U tozalik va ozodalikni inson salomatligi va pokligining muhim omili deb bilgan. "Mineralogiya" asarida Beruniy oilani mustahkam saqlash va baxtli hayot kechirish asosan ayollarning odobi va tarbiyasiga bog'liq ekanini qayd etadi. Beruniy fikricha, oiladagi tinchlik va mustahkamlik axloqli va yaxshi tarbiya olgan ayollar qo'lida bo'ladi, bu esa bugungi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan [3].

Abu Ali Ibn Sino "Kitob ush-Shifo" asarida oila inqirozi va uning mustahkamligiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatadi. Unga ko'ra:

agar turmushdan keyin farzand dunyoga kelmasa;

agar ayol umr yo'ldoshiga xiyonat qilsa yoki hurmatini pasaytirs;

agar ayol odobsiz bo'lsa yoki tarbiya olishni istamasa;

er-xotin bir-birini yoqtirmaydigan tabiati bo'lsa-bunday holatlar oilaning beqarorligiga olib keladi. Shu bilan birga, o'zaro hurmat va tushunish oilaning mustahkamligini oshiradi [1].

Alisher Navoiy esa ayolning oiladagi rolini yuksak baholagan. U fikricha, yaxshi ayol — oilaning baxti, qiyinchilikda suyanchiq bo'lishi va ma'naviy kuch bilan turmushga yordam beradigan insondir. Tili zahar bo'lsa yoki odobsiz bo'lsa, bu oilaning mustahkamligini buzadi [2].

Sharq mutafakkirlarining qarashlari yoshlarning oila qurishga tayyorgarligida gender rollarining muvozanatli va mas'uliyatli taqsimlanishiga alohida e'tibor qaratganini ko'rsatadi. Beruniy, Ibn Sino va Alisher Navoiy asarlarida ayol va erkakning oiladagi vazifalari biologik yoki ijtimoiy ustunlik emas, balki axloqiy yetuklik va ma'naviy mas'uliyat mezonlari asosida baholanadi. Bu yondashuv gender masalasini qarama-qarshilik emas, balki o'zaro to'ldiruvchanlik sifatida talqin etadi.

Beruniy ayol tarbiyasini oilaviy barqarorlikning asosiy omili sifatida ko'rsa, bu ayolni ikkilamchi emas, balki oilaning ma'naviy ustuni sifatida yuksaltiradi. Ibn Sino esa oiladagi inqiroz sabablarini faqat ayol xulqi bilan emas, balki er-xotin o'rtasidagi moslik, hurmat va emotsional uyg'unlik bilan bog'laydi. Navoiy esa ayolning nutqi, odobi va sabrini oiladagi ruhiy muhitni belgilovchi asosiy kuch sifatida ko'rsatadi.

Demak, Sharq mutafakkirlari nazarida gender masalasi tenglik yoki ustunlik doirasida emas, balki o'zaro mas'uliyat, axloqiy hamkorlik va ruhiy uyg'unlik mezonlari asosida talqin qilinadi. Bu yondashuv bugungi gender munosabatlariga ham muvozanatli, konstruktiv nazariy asos bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda sharq mutafakkirlari yoshlarning oila qurishidagi gender masalasini qarama-qarshilik emas, balki o'zaro mas'uliyat va uyg'unlik sifatida talqin etgan. Ayol va erkakning axloqiy yetukligi oilaning barqarorligini belgilaydi. Bu qarashlar zamonaviy jamiyatda gender munosabatlarini muvozanatli rivojlantirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Beruniy Mineralogiya-M, 1963 256-v
- 2 Raximov S. Abu Ali Ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida –T “Oqituvch” 1967 -99 v
- 3 Shomarov G Oila psixologiyasi “Sharq nashiriyoti” 2010-y
- 4 Салаватова Н.А. Педагогические условия подготовки учащейся молодежи к брачно-семейным отношениям (на материале Республики Дагестан). Автореф.дисс. канд. пед.наук. ./13.00.01/ - Махачкала, 2010
- 5 Сизанов А.Н. Подготовка подростков к семейной жизни / А.Н. Сизанов. - Минск: Народная расвета, 1989. - 112 с